

OLIY TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT PLATFORMALARINI YARATISH AHAMIYATI

Turdiyeva Mohinur Umar qizi

Toshkent Moliya insituti 1-bosqich magistranti

turdiyevamohinur324@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda hozirgi kunda ta'lism sifatini oshirishda, talabalar bilan individual tarzda ishlashga yordam beradigan raqamli platformalarning ahamiyati, imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan. Hozirgi kunda ko'pgina ta'lism muassasalari yoki o'quv markazlari zamonaviy raqamli platformalaridan foydalanib o'z imkoniyatlarini oshirib kelmoqdalar. Bunga asosiy sabab esa, zamonaviy bozor ehtiyojlariga moslashish hamda ta'lism sifatini oshirishdir.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lism tizimi, raqamli platforma, raqamli texnologiya, ta'lism sanoati, AKT*


Kirish: Bugungi kunda ta'lism butun dunyo bo'ylab eng yirik va barqaror rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Ta'lism sanoati ta'lism biznesini boshlash uchun istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etadi. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq topishi, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda

2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” , deb nom berishni taklif etaman”.¹

Innovatsion ta’lim texnologiyalari – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga va uning ehtiyojlariga javob beradigan hamda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan ta’lim faoliyatini tashkil etishning zamonaviy vositalari, usullari va shakllari majmuidir.

Raqamli ta’lim texnologiyalari - elektron tizimlardan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usuli. Raqamli texnologiyalardan foydalanishdan maqsad o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, talabalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishdir.

Talabalarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari orasida quyidagilar qayd etilgan:



1-rasm: Ta’lim biznesida raqamli innovatsion texnologiyalar²

Mamlakatimizdagi ta’lim tizimi hozirgi davrning talablariga javob bera olmayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Ushbu holatni tubdan o‘zgartirishning asosiy yo’llaridan biri bu ta’lim tizimiga zamonaviy, yangi dasturiy-texnik

¹ <https://lex.uz/docs/-5186087>

² Muallif ishlanmasi

vositalarini keng miqyosda jalb qilishdir. Misol uchun MOOC (massive open online courses) – ommaviy ochiq onlayn ta’lim tizimini keltirishimiz mumkin. Ushbu tizim – yangi ko‘nikmalarni o‘rganish, martaba oshirish va sifatli ta’lim tajribasini keng miqyosda taqdim etishning arzon va moslashuvchan usulini taqdim etadi. Bundan bir necha yillar oldin, ya’ni, 2012 yilning kuzlarida Stenford universitetining ikki professori Sebastyan Trun va Piter Norvig internetda barcha istovchilar uchun sun’iy intellekt bo‘yicha ma’ruzalar tinglashni taklif qilishdi. Bu ma’ruzalar o‘z tarkibiga barcha kerakli materiallarni, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab olgan edi. Mashg‘ulotlar esa faqat online ko‘rinishida tashkil etilgan edi. Ma’ruzachilar eng ko‘pi bilan 2-3 ming talaba ushbu mashg‘ulotlarga qatnashishini rejalashtirgan bo‘lsalarda, semester boshida unga dunyoning 200 ta mamlakatidan 160 ming kishi yozilib bo‘lgan edi. Bunga o‘xhash masofaviy ta’lim tizimlari borgan sari murakkablashib va sifati oshib borayotganini ta’kidlashimiz mumkin. Tabiiyki, shu kabi ta’lim platformlari jamiyat ravnaqi uchun ham foydali.

Hozirda mamlakatimizda turli sohalar bo‘yicha xususan, til o‘rganish, dasturlash bo‘yicha turli xil ta’lim platformalar mavjud va ulardan eng mashhurlarini quyida ko‘rishingiz mumkin. Misol uchun foydalanuvchilar soni bo‘yicha eng nufuzlilaridan biri Khan Academy.

Khan Academy –2008 yilda moliyaviy analitik Salman Xan tomonidan asos solingan notijorat tashkiloti bo‘lib, u matematika, fizika, biologiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bo‘yicha turli-tuman topshiriqlar va videomateriallarning raqamli olamdagi o‘ziga hos ombori hisoblanadi. Ushbu akademianing materiallari turli xil murakkablikda bo‘lib, ushbu platforma asosan o‘rta maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallanilgan. Khan Academy raqamli ta’lim tizimi o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga imkon beradi, ya’ni, o‘quvchilar uylarida internet orqali ma’ruzalarni eshitishadi va darsga kelganlarida o‘qituvchi yordamida uy vazifalarini bajaradilar. O‘qituvchi esa istalgan paytda o‘quvchi qaysi ma’lumotlarni o‘zlashtirgan yoki qaysi ma’lumotni o‘zlashtirish o‘quvchgiga qiyinchilik tug‘dirayotganini tekshira oladi.

Xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha Duolino (<https://www.duolingo.com/>) platformasi :

Duolingo - bu onlayn (va ilovaga) asoslangan dastur bo‘lib, foydalanuvchilarga faqatgina ingliz tilini emas balki 40 dan ortiq tillar bo‘yicha kurslarni taklif etadi, Duolingo dastavval faqatgina ingliz tilidan til sertifikati beradiga platforma sifatida ish olib borgan. Ammo yillar o‘tib platforma takomillashib bordi va 2023-yil fevral holatiga ko‘ra, Duolingo oylik yuklab olishlar asosida dunyodagi eng mashhur til o‘rganish ilovasi bo‘ldi, Statistik ma’lumotlarga ko‘ra o‘sha oyda deyarli 13,4 million foydalanuvchi ushbu ilovani yuklab olgan.

Duolingo til o‘rganishda o‘yin usulidan foydalanadi Shuningdek, u har bir o‘quvchining darajasi va o‘rganish uslubiga mos keladigan, shaxsiy fikr-mulohazalar va tavsiyalar beruvchi noyob algoritmdan foydalanadi.

Xulosa: Ta’lim texnologiyalarining kengayishi bilan ta’lim ham jamiyatining barcha tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali o‘rganishning maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va usullari bo‘yicha olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda va bu kelajakda o‘z natijasini ko‘rsatishiga ishonilmoqda. Ta’lim tizimida platformalardan foydalanish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qulay va samarali vosita hisoblanadi. Bu platformalar o‘quv materiallarini, darsliklarni, video darslarni, amaliy mashg‘ulotlarni va boshqa ta’lim vositalarini onlayn tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu platformalar o‘qtuvchilar bergen topshiriqlar va o‘quvchilarning vazifalarini onlayn tarzda saqlab qolishga imkon beradi. Bu esa ta’lim jarayonini monitoring qilish va takomillashtirishga yordam beradi.